Bugungi kunda iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida auditorlik tekshiruvi yakuniy bosqichini xalqaro standartlar asosida tashkil etishga qaratilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi O‘RQ-677-son “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida auditorlik faoliyatini auditning xalqaro standartlari asosida amalga oshirish tartibi belgilangan [1]. Xalqaro auditorlik amaliyotida olib borilgan tadqiqotlarda asosan auditorlik tekshiruvini tashkil etishning tartib-taomillari, auditorlik riski va muhimlik darajalarini aniqlash hamda riskni pasaytirish yo‘llari ishlab chiqilgan, ishonchli auditor fikrini shakllantirishda dalillar yetarliligini baholash va tekshiruv natijalarini umumlashtirish masalalari, AXS — auditning xalqaro standartlari talablariga mos keluvchi auditorlik xulosasini shakllantirish masalalari ilmiy jihatdan asoslangan. Mazkur tadqiqotlar natijasida AQShning umumqabul qilingan prinsiplari — GAAP, moliyaviy

hisobotning xalqaro standartlari va AXS qoidalarini oʻzaro muvofiqlashtirishga erishilib, auditorlik xulosasining standart shakllari hamda audit oʻtkazish uslubiyati tavsiya etilgan. Biroq yuqoridagilarga qaramasdan, hozirgi jahon auditorlik amaliyotida xalqaro standartlarga muvofiq auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish va baholash masalalari kompleks tarzda oʻrganilmaganligi bu borada chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichini takomillashtirish masalalari xorij olimlaridan A. Arens, J. Lobbek, R. Adams, J. Robertsonlar, MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan P. I. Kamishanov, A. A. Terexov, V. P. Suys va A. D. Sheremet[1] hamda boshqalarning ilmiy ishlarida batafsil yoritilgan. Bu borada respublikamiz olimlaridan R. D. Dusmuratov, Z. T. Mamatov va I. N. Qoʻziyevlar[2] audit natijalarini umumlashtirish masalalari boʻyicha tadqiqotlarni amalga oshirgan. Biroq audit boʻyicha mahalliy adabiyotlarda audit natijalarini umumlashtirish bilan bogʻliq masalalar yetarli darajada yoritilmagan. Oʻzbekistonda olib borilgan aksariyat tadqiqot natijalari auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va auditorlik xulosasini tayyorlash masalalariga bagʻishlangan.

Amaldagi "Auditorlik faoliyati toʻgʻrisida"gi Qonunda "koʻrsatilgan auditorlik xizmatlari natijalarining tegishli ravishda hujjatlashtirilishi"[3] auditorlik tashkiloti ishi sifatining asosiy koʻrsatkichlari sifatida baholanishi belgilangan. Biroq mazkur qonunda auditorlik tekshiruvi auditning xalqaro standartlariga muvofiq amalga oshirilishi belgilanib, auditorlik xulosasini tuzgunga qadar rasmiylashtiriladigan ish hujjatlari toʻgʻrisidagi me'yorlar aniqlashtirilmagan.

Iqtisodchi olim I. N. Qoʻziyevning ta'kidlashicha, "iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida auditorlik xulosasini tuzish va umumlashtirish kuchli metodologik yondashuvni talab qiladi va yigʻma hujjatlar ma'lumotlarining oʻzaro muvofiqligi ta'minlanadi"[4].

"Buxgalteriya va soliq solish" jurnali amaliyotchi mutaxassislari tomonidan auditorlik xulosasini shakllantirish masalalari[5] tadqiq etilgan. Iqtisodiyot fanlari doktori R. D. Dusmuratov tomonidan "audit natijalarini baholash..."[6] jarayonida bajariladigan auditorlik amallari mazmuni aniqlashtirilgan.

Iqtisodchi olim N. Xajimuratovning fikricha, "auditorlik xulosasini shakllantirish katta hajmdagi turli-tuman axborotni qayta ishlash natijasi sanalib, unga asoslangan holda moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida fikr yuritish mumkin"[7].

Audit sohasi boʻyicha yetakchi oʻzbek olimi R. D. Dusmuratovning ta'kidlashicha, "Audit natijalarini baholash ishlari asosan quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- ishchi hujjatlarni sharhlash va yakuniy ishchi hujjatlarni tayyorlash;
- aniqlangan buzib koʻrsatishlarning jiddiylik darajasini baholash;
- auditorlik dalillarining yetarliligini baholash;
- faoliyat koʻrsatayotgan korxona prinsipi bilan bogʻliq omillarni baholash;
- buxgalteriya hisobotidagi axborotlarni taqdim qilish va bayon qilish;
- hisobot tuzilganidan soʻng sodir boʻlgan hodisalarni baholash;
- tekshiruv natijalari boʻyicha auditorning audit buyurtmachisi rahbariyatiga taqdim qiladigan yozma axborotini tuzish;
- auditorlik hisoboti va xulosasini tuzish"[8].

Amaldagi "Auditorlik hujjatlari" nomli 230-son auditorlik xalqaro standartining ilovasi[9][9] da auditorlik

<?> Аренс А., Лоббек Дж. Аудит. Пер. с англ. под ред. Я.В. Соколова. -М.: Финансы и статистика, 2013. -560 с; Адамс Р. Основы аудита. Пер. с анг./под ред. Я.В. Соколова. – М.: ЮНИТИ, 2015.-398с.; Робертсон Дж. Аудит / Пер. с англ./Дж. Робертсон -М.: Контакт, 2004.-496 с.

2 Камышанов П.И. Практическое пособие по аудиту. -М.: ИНФРА-М. 1996.-522 с.; Терехов А.А. Аудит: перспективы развития. – М.: Финансы и статистика, 2001. -560 с; Суйс В.П., Шеремет А.Д. Аудит. Учебник. -М.: ИНФРА-М, 2009. -456 с.

3 Dusmuratov R.D. Oʻzbekistonda auditorlik faoliyatining shakllanishi va uning uslubiyotini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent - 2008. - 35 b.; Mamtov Z.T. Xoʻjalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot auditini oʻtkazishni takomillashtirish masalalari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent -2005. - 40 b.; Qoʻziev I.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent-2017. - 70 b.

4 Oʻzbekiston respublikasi 2021 yil 25 fevraldagi "Auditorlik faoliyati toʻgʻrisida"gi OʻRQ-677 son Qonunining 48 moddasi. https://lex.uz

5 Qoʻziyev I.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent-2017. - 70 b.

6 https://www.bss.uz internet sayti

7 Doʻsmuratov R.D. Audit asoslari. Darslik - Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003. – 612 b.

8 N.Sh.Xajimuratov. Moliyaviy hisobot haqida auditorlik fikrini shakllantirish bosqichlari va omillari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2018 yil.

9 Doʻsmuratov R.D. Audit asoslari. Darslik. - Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2003. – 612 b.

tekshiruvi natijalari xulosa va shu kabi hujjatlarda umumlashtirilishi belgilangan boʻlsa-da, biroq mazkur standartda tekshiruv natijalari aks ettiriladigan hujjatlarning nomlari umumiy va mavhum mazmunda bayon qilingan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda nazariy va amaliy oʻrganish, tizimli yondashuv, guruhlash, taqqoslama tahlil, kuzatuv, statistik tahlil, omilli tahlil qilish usullaridan samarali foydalanilgan. Olib borilgan tadqiqotlar asosida auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtiruvchi hujjatlar tizimini turkumlash va natijalarni umumlashtirishni takomillashtirish, auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish va baholashga taʼsir etuvchi omillar taʼsirini hisoblash hamda auditorlik tekshiruvi natijalariga asosan ishonchli auditorlik xulosasini shakllantirishga qaratilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Maʼlumki, xoʻjalik yurituvchi subyekt tomonidan auditorlik tekshiruvini tashkil etishdan koʻzlangan asosiy maqsad xoʻjalik yurituvchi subyekt buxgalteriya hisobi faoliyatining qonuniyligi va moliyaviy hisobot koʻrsatkichlarining ishonchliligi toʻgʻrisidagi axborotlarni shakllantirishdan iboratdir. Ushbu axborotlar esa nafaqat xoʻjalik yurituvchi subyekt ichki faoliyati uchun, balki korxonaga tashqi va ichki moliya bozorlaridan xorijiy investorlar orqali moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatlarini ham ochishi mumkin. Bu esa mahsulot, ish va xizmatlar tannarxi hamda sifatini xaridor va buyurtmachilar talablariga moslashtirish, raqobatbardosh mahsulot, ish va xizmatlarni yaratish hisobiga xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini hosil qiladi. Ushbu yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanilishi natijasida toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy sarmoyalar, xorijiy moliya tashkilotlari mablagʻlaridan qoʻshimcha shartlarsiz, yaʼni davlat, bank va chet el investorlari kafolatlarisiz foydalanishga erishish mumkin boʻladi. Ushbu maqsadda mamlakatimizda korxonalar moliyaviy faoliyati natijalarini asoslovchi rasmiy hujjat, yaʼni moliyaviy hisobotlarni xalqaro meʼyorlar talablari asosida shakllantirish maqsadida koʻplab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2020-yil 24-fevralda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga oʻtish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-4611-son qarori talablariga muvofiq “aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sugʻurta tashkilotlari va yirik soliq toʻlovchilar toifasiga kiruvchi yuridik shaxslar 2021-yildan boshlab hisob yuritish va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida shakllantirish”lari normativ-huquqiy jihatdan belgilandi [2]. Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar talablari asosida shakllantirishga eʼtibor kuchayganini moliyaviy hisobotning biznes va buxgalteriya tizimidagi asosiy axborot manbai ekanligi bilan izohlash mumkin, yaʼni moliyaviy hisobot biznes va buxgalteriya tizimining tilidir. Moliyaviy hisobot axborotlari rasman barcha uchun ochiq hisoblanib, bu axborotlar xoʻjalik subyekti faoliyatining shaffofligini hamda xalqaro moliya tashkilotlari uchun kredit reytingini yaratish imkoniyatini taʼminlovchi asosiy shartlardan biridir.

Oʻz navbatida, tayyorlangan moliyaviy hisobot maʼlumotlarining amaliy koʻrsatkichlarga muvofiqligi auditorlik tashkilotlari tomonidan baholanadi hamda moliyaviy hisobot ishonchliligi yuzasidan auditorlik fikri shakllantiriladi. Auditorlik fikrining ishonchliligini taʼminlash va auditorlik faoliyatini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3946-son qarori qabul qilingan [3]. Mazkur qarorda Oʻzbekistonda auditorlik faoliyatini rivojlantirishdagi mavjud muammolar hamda ushbu sohani takomillashtirishning ustuvor yoʻnalishlari belgilab berilgan.

Qarorda auditorlik faoliyati rivojiga taʼsir koʻrsatayotgan muammoli jihatlardan biri sifatida auditorlik tashkilotlariga boʻlgan ishonch darajasining yetarli emasligi hamda auditorlik tekshiruvining moliyaviy hisobot ishonchliligini tasdiqlashdagi amaliy ahamiyati ayrim hollarda yetarlicha anglanmayotgani qayd etilgan. Ushbu yoʻnalishlarni normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida 2021-yil 25-fevralda yangi tahrirdagi “Auditorlik faoliyati toʻgʻrisida”gi OʻRQ-677-son Qonun qabul qilindi [1]. Mazkur qonun 9 bob va 55 moddadan iborat boʻlib, unda “moliyaviy hisobot” atamasining bir necha bor qoʻllanilishi ushbu hujjatning moliyaviy hisobot ishonchliligini baholash va moliyaviy hisobot auditini tartibga solishga qaratilganligini koʻrsatadi.

Maʼlumki, Oʻzbekiston amaliyotida 2021-yil 25-fevraldagi “Auditorlik faoliyati toʻgʻrisida”gi OʻRQ-677-son Qonuniga muvofiq korxonalarning 2021-yil natijalari boʻyicha yillik moliyaviy hisobotlari auditning xalqaro standartlariga muvofiq xulosa shakllantirilishi belgilab qoʻyildi va 2022-yilda auditorlik tashkilotlari tomonidan toʻliq auditning xalqaro standartlari asosida oʻtkazildi [1]. Shuningdek, 2021-yil 1-yanvardan eʼtiboran Prezidentning 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga oʻtish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-4611-son Qaroriga muvofiq aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sugʻurta tashkilotlari va yirik soliq toʻlovchi yuridik shaxslar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni shakllantirishlari majburiy tartib sifatida belgilandi. Biroq 2022-yilda PQ-4611-son qarorda belgilangan toifadagi

subyektlarni majburiy auditdan oʻtkazishda ayrim muammolar kuzatildi [2]. Jumladan, MHXS asosida moliyaviy hisobotlarni qanday shakllarda tayyorlash va foydalanuvchilarga qaysi muddatlarda taqdim etish boʻyicha ayrim aniqliklarning yetarli emasligi ularni "Auditorlik faoliyati toʻgʻrisida"gi Qonunda belgilangan muddatlarda majburiy auditdan oʻtkazish jarayoniga muayyan darajada taʼsir koʻrsatdi.

Biroq Oʻzbekiston amaliyotida MHXS asosida moliyaviy hisobotni shakllantirish va auditning xalqaro standartlari asosida auditorlik xulosalarini shakllantirishda muammolar mavjudligi kuzatildi. Bizningcha, moliyaviy hisobot auditining yakuniy bosqichida quyidagilar bajarilishi lozim:

- auditorlik dalillarining yetarliligi, ulardagi axborotlar mazmunining toʻliq ochib berilganligi va ularning ishonchliligini baholash;
- tekshirilgan mijoz faoliyati bilan bogʻliq omillarni oʻrganish va ularning mijoz moliyaviy hisobotiga taʼsirini baholash;
- moliyaviy hisobotdagi axborotlarni taqdim qilish va bayon qilish holatini oʻrganish;
- moliyaviy hisobot tuzilganidan soʻng sodir boʻlgan hodisalarni baholash;
- toʻplangan dalillar asosida oraliq tekshiruv natijalarini auditorlik ish hujjatlarida umumlashtirish;
- aniqlangan kamchiliklarning jiddiylik darajasini baholash;
- tekshiruv natijalari boʻyicha auditorning mijoz rahbariyatiga yozma axborot xatini tayyorlash va taqdim etish;
- xalqaro standartlarga muvofiq auditorlik hisoboti va xulosasini tayyorlash hamda mijoz rahbariyatiga taqdim etish.

Maʼlumki, auditorlik xulosasi amaldagi 700, 705, 706, 710 va 720-son Auditning xalqaro standartlari talablariga muvofiq shakllantiriladi. Mazkur standartlarda auditorlik xulosasida moliyaviy hisobot koʻrsatkichlarining ishonchliligi toʻgʻrisidagi qatʼiy tartibda aks ettirilishi majburiy boʻlgan auditor fikrini tasdiqlovchi jihatlar aniq belgilab qoʻyilgan. Amaldagi Auditning xalqaro standartlariga muvofiq, auditorlik xulosasida tekshirilgan subyekt moliyaviy hisoboti toʻgʻrisida quyidagilar aks ettirilishi zarurligi belgilangan (1-rasm).




1-rasm. Auditorlik xulosasida moliyaviy hisobot toʻgʻrisida aks ettiriladigan maʼlumotlar[2]

Auditor auditorlik xulosasini shakllantirishda yuqoridagi turkumlardagi axborotlarni oʻtkazilgan auditorlik tekshiruvi natijalariga koʻra umumlashtirishi hamda mazkur masalalar boʻyicha toʻplangan dalillar maʼlumotlarini aniq mazmunda shakllantirishi talab etiladi. Bugungi kunda Oʻzbekiston amaliyotida xoʻjalik yurituvchi subyektlar, ayniqsa, tijorat banklari, yirik aksiyadorlik jamiyatlari, sugʻurta va lizing kompaniyalari tomonidan auditorlik tashkilotlaridan yuqoridagi mazmundagi moliyaviy hisobot boʻyicha auditorlik xulosalarining olinishi natijasida ularning xalqaro amaliyotda Fitch Ratings va Standard & Poor's Global Ratings xalqaro reyting agentliklari

orqali yuqori reytinglar asosida jahon bozoriga chiqishida va yirik moliya-kredit tashkilotlari nazariga tushish imkoniyatlari oshmoqda. Bunda, ayniqsa, moliyaviy hisobotlari MHXS talablari asosida shakllantirilgan va dunyoning "katta to'rtlik"ka kiruvchi auditorlik kompaniyalarining ijobiy auditorlik xulosasi asosida e'tirof etilgan moliyaviy hisobotlar katta xorijiy moliyaviy hamkorlar uchun ma'lumot manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

O'z navbatida, auditor moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari ishonchliligi to'g'risida yetarli va ishonchli dalillarni to'plagandan so'ng, moliyaviy hisobot ishonchliligi to'g'risida o'z fikri, ya'ni xulosasini shakllantiradi. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, auditorlik xulosasining modifikatsiyalangan va modifikatsiyalanmagan kabi turlari, xulosa shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda xulosaning moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar qaroriga ta'sirini quyidagi jadvalda keltirilgan mazmunda tavsiflash mumkin (1-jadval).

1-jadval

**Auditorlik xulosasi shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar va xulosani foydalanuvchilar qarorlariga ta'sirining tavsifi[10]**

| Ijobiy xulosa | Izohlar bilan bildirilgan xulosa | Salbiy xulosa | Moliyaviy hisobot bo'yicha fikr bildirishdan bosh tortish |
|---|---|---|---|
| Xulosa turlari tavsifi | | | |
| Tekshiruv buyurtmachisining moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini haqiqatdagi birlamchi ma'lumotlarga mosligi va buxgalteriya hisobining amaldagi holatini buxgalteriya hisobi to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkiloti tomonidan bildirilgan fikr (xulosa) | Moliyaviy hisobot ishonchliligi to'g'risida yetarli dalillar to'planganligiga qaramasdan, tekshiruvda aniqlangan buzib ko'rsatishlarni auditor tomonidan moliyaviy hisobotning alohida ko'rsatkichi yoki uning jami summasiga jiddiy ta'siri mavjud emasligi yoki yetarli dalillar to'plashni imkoni bo'lmaganligi bois, moliyaviy hisobotda aniqlangan muhim buzib ko'rsatishlar auditor tomonidan moliyaviy hisobot ishonchliligiga jiddiy ta'sir etmaydi deb baholangan hollarda auditorlik tashkiloti tomonidan beriladigan xulosa | O'rganilayotgan subyektning moliyaviy hisobotida muhim buzib ko'rsatishlar mavjud bo'lsa va ularga subyekt rahbariyati tomonidan tuzatishlar kiritilmasa hamda o'rganilgan moliyaviy hisobotda undan foydalanuvchilarni chalg'itishi yoki noto'g'ri xulosa qilishiga ta'sir etuvchi buzib ko'rsatishlar aniqlanganda beriladigan xulosa | Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari ishonchliligi to'g'risida yetarli va mos dalillar to'plash imkoni bo'lmaganda o'rganilayotgan moliyaviy hisobot to'g'risida fikr bildirishni rad etish (bosh tortish) to'g'risida tuzilgan xulosa |
| II. Xulosa shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar | | | |
| 1.Tekshiruv buyurtmachisining moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari uning haqiqatdagi moliyaviy ahvoli va moliyaviy natijalarini o'zida aks ettirsa;<br>2.Tekshiruv buyurtmachisining amaldagi buxgalteriya hisobi faoliyati normativ-huquqiy hujjatlar va hisob siyosati me'yorlariga muvofiq yuritilgan hollarda | 1.Yetarli dalillar to'planganligiga qaramasdan, auditorlik tashkiloti aniqlangan muhim buzib ko'rsatishlarning moliyaviy hisobotga jiddiy ta'sir ko'rsatmasligi to'g'risida xulosaga kelganda;<br>2.Auditor tomonidan yetarli dalillar to'planmaganligi oqibatida aniqlanmay qolgan buzib ko'rsatishlarni moliyaviy hisobotga ehtimoliy ta'siri mavjud deb hisoblangan, biroq, ular moliyaviy hisobotning asosiy ko'rsatkichlariga jiddiy ta'sir etmaydi degan xulosaga kelinganda | 1.Moliyaviy hisobotda aks ettirilgan ko'rsatkichlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda taqiqlangan yoki ular talablariga muvofiq bo'lmagan muomalalar natijasida shakllanganligini tasdiqlovchi dalillar aniqlangan hollarda;<br>2.Audit buyurtmachisi rahbariyatining aniqlangan buzib ko'rsatishlarni bartaraf etish yuzasidan moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritishga rozi bo'lmagan hollarda | 1.Tekshiruv buyurtmachisi faoliyati to'g'risida dalillar to'plash jarayonini nazorat qilib bo'lmaydigan holatlar mavjudligi aniqlanganda;<br>2.Tekshiruv buyurtmachisi rahbariyati tomonidan dalillarni to'plashda turli cheklovlar yoki moliyaviy hisobot ma'lumotlarini tasdiqlovchi ichki ma'lumotlarni auditorga taqdim etilmasligi;<br>3.Normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro standartlarda belgilangan auditorlik tekshiruvini o'tkazish qoidalari yoki muddatlariga rioya etish bilan bog'liq muammoli holatlar mavjudligi |

Tekshiruv jarayonida yetarli dalillarni qo'shimcha muqobil auditorlik amallarini bajarish orqali olishni taqozo etib, bunday amallarni auditor tomonidan bajarish imkoniyatining bo'lmasligi auditorlik standartlariga ko'ra auditorlik tekshiruvi hajmining cheklanishi hisoblanmaydi. Agar auditorlar ushbu masalada yetarlicha bilim,

10 Додж Р. Краткое руководства по стандартам и нормам аудита. Пер. с анг.: предисловие; Робертсон Дж. Аудит / Пер. с англ./Дж. Робертсон -М.: Контакт, 2004, 496 стр.

malaka va ko'nikmaga ega bo'lmasa, auditorlik tashkiloti tekshiruvni o'tkazishdan bosh tortishi maqsadga muvofiq.

Ta'kidlash joizki, amaldagi Auditning xalqaro standartlariga muvofiq tekshiruv yakunida auditor fikrlari faqatgina auditorlik xulosasida aks ettirilishi belgilangan. Biroq xalqaro standartlarda auditorlik xulosasida tekshiruv natijalari to'g'risida batafsil ma'lumot aks ettirilishi bo'yicha aniq talablar belgilanmagan. Bu esa, fikrimizcha, tekshiruv buyurtmachilari tomonidan auditorlik tekshiruvi natijalari to'g'risida batafsil ma'lumot olish imkonini bermaydi. Biroq amaldagi 200-son "Moliyaviy hisobot auditini tartibga solishning maqsadi va umumiy tamoyillari" nomli Auditning xalqaro standarti va 700-son "Moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik hisoboti (xulosasi)" nomli xalqaro standartlarda tekshiruv natijalari quyidagi turkumdagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi belgilangan (2-rasm).




2-rasm. Moliyaviy hisobot ishonchliligini o'rganish natijalari umumlashtirilgan ma'lumotlar tarkibi[11]

Yuqorida ta'kidlanganidek, Auditning xalqaro standartlari asosida auditorlik tekshiruvini tashkil etish ilg'or xorij tajribasiga muvofiq auditor fikrini shakllantirishni taqozo etadi. O'z navbatida, Auditning xalqaro standartlarida tekshiruv natijalari bo'yicha auditor fikri auditorlik xulosasi va auditorlik tashkiloti tomonidan mustaqil tayyorlanadigan hamda tavsiyaviy xarakterdagi, korxona rahbariyatiga yo'llanadigan xatda aks ettiriladi. Auditorlik xizmati buyurtmachisiga yo'llanadigan mazkur xat auditorlik tekshiruvi natijalari asosida auditorlik tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Amaldagi 700, 705, 706, 710 va 720-son Auditning xalqaro standartlarida tekshirilayotgan subyekt rahbariyatiga yo'llanadigan ushbu xatning shakl va mazmuni ko'rsatilmagan bo'lib, ushbu xat korxona rahbariyati talabiga ko'ra yoki auditorlik tashkiloti tomonidan mustaqil ravishda taqdim etiladi. Bizningcha, O'zbekiston auditorlik amaliyotida aksariyat auditorlik tashkilotlari auditorlik xulosasini yuqoridagi standartlarga muvofiq tayyorlab, korxonalarga taqdim etmoqdalar. Fikrimizcha, korxona faoliyatining qonuniyligi va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligi yuzasidan auditorlik xulosasi mazmunini yetarli emas deb hisoblaymiz hamda rasmiy xulosadan tashqari quyidagi shakl va mazmunda auditorlik tashkiloti tomonidan tekshiruv natijalari bo'yicha ma'lumotnoma shaklida xat tayyorlanishi maqsadga muvofiqdir.

2-jadval

**Moliyaviy hisobot auditi natijalari bo'yicha korxonaga taqdim etiladigan xat mazmuni va uning tarkibiy qismlari tavsifi[12]**

| | Xat tarkibiy qismlari |
|---|---|
| 1 | Auditni rejalashtirish va buxgalteriya hisobi tahlili to'g'risida ma'lumot;<br>2. Korxona ichki nazorat tizimi holati;<br>3. Firibgarlik va moliyaviy hisobotdagi buzib ko'rsatishlarning moliyaviy hisobotga ta'siri to'g'risida ma'lumot;<br>4. Inventarizatsiya;<br>5. Faoliyat uzluksizligi. |
| 2 | Korxona ta'sischilari yoki kuzatuv kengashiga tekshiruv natijalari bo'yicha jo'natilayotgan xatning qisqacha mazmuni va uning tarkibi to'g'risida qisqacha ma'lumot |

11 Muallif tomonidan tayyorlangan
12 Muallif tomonidan tayyorlangan

| | |
|---|---|
| 3 | Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish, qoʻllanilgan auditorlik usullari va amallari, oʻrganilgan moliyaviy koʻrsatkichlarning ishonchlilik darajasi, mavjud auditorlik riski va muhimlik darajasi, korxona buxgalteriya hisobini oʻrganish natijalari toʻgʻrisida tahliliy maʼlumot |
| 4 | Korxona ichki nazorat tizimining amaldagi tarkibi va holati, qoʻllanilgan ichki nazorat usullari, korxona masʼul shaxslarining oʻz lavozim majburiyatlarini bajarish holati, ichki nazorat tizimi maʼlumotlariga rahbariyat munosabati, ichki nazorat tizimi maʼlumotlarining ishonchlilik darajasi va ulardan amalda foydalanish holati, tizimning amaldagi samaradorlik darajasi toʻgʻrisida maʼlumot va tizimni mustahkamlash boʻyicha tavsiyalar |
| 5 | Korxona moliyaviy hisobotida aniqlangan buzib koʻrsatishlar hamda firibgarlik xavfi bilan bogʻliq holatlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar, ularning moliyaviy hisobot ishonchliligiga taʼsiri va muhimlik darajasi baholanadi. Shuningdek, bunday holatlarni kamaytirish boʻyicha korxonada amalga oshirilgan chora-tadbirlar, axloq meʼyorlari va ichki meʼyoriy hujjatlar, aniqlangan risk darajasi hamda uni pasaytirish va nazorat qilish boʻyicha amaldagi siyosat tahlil qilinadi. Bundan tashqari, moliyaviy hisobotda buzib koʻrsatishlarga yoʻl qoʻyilishining oldini olish, firibgarlik xavfini kamaytirish va ichki nazorat tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqiladi. |
| 6 | Korxonada oʻtkazilgan inventarizatsiya natijalari tahlili, korxona debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili, inventarizatsiya natijalarini umumlashtirish holati, inventarizatsiya natijalarining moliyaviy hisobot koʻrsatkichlariga taʼsiri, inventarizatsiya natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yoki takrorlanmasligi yuzasidan tavsiyalar |
| 7 | Korxona faoliyat uzluksizligining amaldagi holati, korxona moliyaviy natijalari va majburiyatlari tahlili, aniqlangan uzluksizlik darajasi oqibatlari yoki mavjud uzluksizlik riski, faoliyat uzluksizligini taʼminlash boʻyicha tavsiyalar, korxona faoliyat uzluksizligini taʼminlash boʻyicha tavsiyalar yoki rejalashtirilgan vazifalar, korxona boshqaruv strategiyasi va boshqalar |

Bizningcha, ushbu xat mazmunida quyidagilar koʻrsatilishi lozim (2-jadval). Moliyaviy hisobot auditi natijalari boʻyicha yuqoridagi mazmundagi kabi mijoz korxonaga xat tayyorlanishi auditorlik xulosasi mazmunini ochib berish hamda moliyaviy hisobot boʻyicha auditor fikrini bayon etish imkonini beradi. Mazkur xatga tekshiruv natijalari boʻyicha toʻplangan dalillar hamda ularga auditorlik izohlari toʻliq ilova qilinishi maqsadga muvofiq.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, auditorlik tekshiruvi natijalari oraliq va umumiy auditorlik maʼlumotnomalari nomli ish hujjatlarida aks ettirilishi maqsadga muvofiq. Mazkur hujjatlar amaldagi 230-son “Auditni hujjatlashtirish” nomli xalqaro standart meʼyorlari asosida umumlashtirilishi va bu hujjatlarda oʻtkazilgan tekshiruv davri, predmeti, tekshiruv natijalari, tekshiruvni amalga oshirganlar va tekshiruv natijalari boʻyicha tekshiruv buyurtmachisi moddiy javobgar shaxslarining eʼtirozlari aniq mazmunda aks ettirilishi zarur.

Bizningcha, auditorlik tekshiruvi yakunida auditorlik guruhi rahbari tomonidan “Auditorlik tekshiruvi toʻliq yakunlanganligini aniqlash boʻyicha savolnoma” oʻtkazilishi maqsadga muvofiq. Mazkur savolnomada tekshiruvning yakuniy bosqichida auditorlar tomonidan amalga oshirilgan barcha auditorlik amallarining toʻliq hajmda bajarilganligi, tekshiruv jarayonida tuziladigan va mijoz korxonaga taqdim etiladigan hujjatlarning holatini aniqlash hamda bajarilmay qolgan baʼzi amallarni yakunlash imkoniyatlari boʻlishi maqsadga muvofiq.

Auditorlik tashkiloti auditorlik tekshiruvi natijalariga koʻra quyidagilarga baho berishi lozim:

- auditorlik faoliyati toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga muvofiq fikr bildirish uchun yetarli va lozim darajadagi dalillar olinganligi;
- alohida-alohida yoki umumiy birgalikda olinganda tuzatilmagan buzib koʻrsatishlar auditorlik faoliyati toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga muvofiq muhim hisoblanishi;
- qabul qilingan hisob siyosatining asoslanganligi va uning buxgalteriya hisobi toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi;
- moliyaviy hisobotda aks ettirilgan axborotning ishonchli, qiyoslanuvchanligi, tushunarli va oʻrinli ekanligi;
- moliyaviy hisobotning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tuzishga doir normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligi.

Auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichini takomillashtirish auditorlik tashkilotlarida kasbiy xatoliklar, huquqiy javobgarlik hamda litsenziya bilan bogʻliq xatarlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Mazkur vazifalarning

samarali bajarilishi O‘zbekistonda shakllantirilayotgan auditorlik xulosalarining ishonchliligini oshirish hamda ularning xalqaro investorlar tomonidan qabul qilinish darajasini kuchaytirishga imkon yaratadi.

O‘zbekiston auditorlik amaliyotida tekshiruv natijalarini umumlashtirish va baholash bosqichini takomillashtirish uchun, eng avvalo, aniqlangan xatoliklarni jamlash va audit yakunida bajariladigan vazifalarni tizimlashtirish, faoliyat uzluksizligi va moliyaviy hisobot tuzilgandan keyingi muomalalarni baholashni chuqurlashtirish, ichki sifat nazoratini kuchaytirish, audit natijalarini audit buyurtmachisi rahbariyati bilan muhokama qilish jarayonini sifat jihatdan yangilash, audit yakunida tayyorlanadigan ish hujjatlarini tizimlashtirish va ularning saqlanishini avtomatlashtirish, auditning yakuniy bosqichi bo‘yicha uslubiy va akademik qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish zarur.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-677-son, 2021-yil 25-fevral. — URL: https://lex.uz/docs/-5307886
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, PQ-4611-son, 2020-yil 24-fevral. — URL: https://lex.uz/docs/-4746047
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, PQ-3946-son, 2018-yil 19-sentyabr. — URL: https://lex.uz/docs/-3914502
4. Аренс Э.А., Лоббек Дж.К. **Аудит** / пер. с англ.; под ред. Я.В. Соколова. — М.: Финансы и статистика, 1995. — 560 с.
5. Адамс Р. **Основы аудита** / пер. с англ.; под ред. Я.В. Соколова. — М.: Аудит; ЮНИТИ, 1995. — 398 с.
6. Робертсон Дж. **Аудит** / пер. с англ. — М.: Контакт, 2004. — 496 с.
7. Камышанов П.И. **Практическое пособие по аудиту**. — М.: ИНФРА-М, 1996. — 522 с.
8. Терехов А.А. **Аудит: перспективы развития**. — М.: Финансы и статистика, 2001. — 560 с.
9. Суйц В.П., Шеремет А.Д. **Аудит**: учебник. — М.: ИНФРА-М, 2009. — 456 с.
10. Do‘smuratov R.D. **O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining shakllanishi va uning uslubiyotini takomillashtirish**: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. — Toshkent, 2008. — 35 b.
11. Mamatov Z.T. **Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot auditini o‘tkazishni takomillashtirish masalalari**: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. — Toshkent, 2005. — 40 b.
12. Qo‘ziyev I.N. **Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish**: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. — Toshkent, 2017. — 70 b.
13. Do‘smuratov R.D. **Audit asoslari**: darslik. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2003. — 612 b.
14. Xajimuratov N.Sh. **Moliyaviy hisobot haqida auditorlik fikrini shakllantirish bosqichlari va omillari** // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. — 2018. — №1.
15. International Auditing and Assurance Standards Board. **International Standard on Auditing 230: Audit Documentation**. — IAASB, 2006.
16. Додж Р. **Краткое руководство по стандартам и нормам аудита** / пер. с англ. — М.: Финансы и статистика, 1992. — 240 с.

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir Alibekov
**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 4**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100